

# Ukrainalik talabalar o'quv amaliyotlarini Andijon davlat tibbiyot institutida o'tkazmoqdalar

Yaqinda Ukrainaning Xarkov milliy tibbiyot universitetidan talabalar mobilligi bo'yicha 5 nafar talaba Andijon davlat tibbiyot institutiga keldi. Ukrainalik talabalar 1 oy davomida institut klinik bazalarida o'z amaliyotlarini o'tkazadilar.





2019 yil 27 iyun kuni ular gospital terapiya kafedrasida o'quv amaliyot jarayonlarida qatnashgan bo'lishsa, 28 iyun kuni institut simulyatsion o'quv markazida bo'lishib, mulyajlarda yurak va o'pka kasalliklari bo'yicha olgan bilim va ko'nikmalarini amaliyotda sinab ko'rdilar. Amaliy mashg'ulotlar qiziqarli va faol tarzida olib borilmoqda.

